

O'QUVCHILARNI MAKTABDAN KEYINGI OLIY TA'LIMGA TOPSHIRISH MASALASI

Rustamova Komila Yaxshiboyevna

Sharof Rashidov tumani 19-maktab psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8047560>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning oliy ta'limga topshirishi, ya'ni abituriyentlik davri va shu davrida kuzatiladigan psixologik xususiyatlari hamda oliy o'quv yurtiga kirish jarayonlaridagi o'ziga xos psixologik muammolar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ehtiyoj potentsiali, e'tiqod, parishonxotirlik, oliy ta'lim, metod.

KIRISH

Yoshligida orzu qilgan va kelajakda biron bir soha vakili bo'lish orzusida yurgan abituriyentlar tayorgarlik kurslariga qatnashni boshlaydilar. Endi ular zimmasida masuliyatli ishlar ikki karra oshdi. Dargohlarning kirish intihomlariga tayorgarlik ko'rishlari, intilishlari o'z orzularini amalga oshirish uchun kurashishlari lozim. Biroq ularning o'z o'zlariga bo'lgan ishonchlari past. Nimaga deysizmi? bu salbiy fikrlarning bosh miyada almashib turishi bilan belgilanadi. Abituriyent xayolida har xil fikrlarning almashinib turishi ko'pincha ularda kuzatilayotgan parishonxotirlik ni keltirib chiqaradi. Odobli, dilkash abituriyent kutilmaganda kaysar, intizomsiz, kupol, serzarda bulib koldi. Xulkidagi bunday uzgarishlar tajribasiz ukituvchi va ota-onasini kattik tashvishga soladi. Har bir yosh davr bosqichlarida o'ziga yarasha psixologik to'qnashuvlar bo'ladi. Bu abituriyentlar uchun yanada o'ziga xos qiyinchiliklar bilan kuzatiladi. Avvalambor abituriyent psixologiyasida oliy o'quv yurtiga kirishga bo'lgan ehtiyoj potentsiali rivojlanib uning o'rnida ko'pincha xavotirlanish bilan almashib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Xo'sh, o'smir yoxud o'spirin abituriyentlarning psixik o'tishini harakatga keltiruvchi kuch nima? Psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi extiyojlar bilan ularni kondirish imkoniyatlari urtasidagi karama-karshiliklar tizimining namoyon bulishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali abituriyent shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yuqotish mumkin.

Ilk o'spirinlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabilar shakllanadigan davr hisoblanadi. O'spirin o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

Ilk o'spirin shaxsini tarkib topshirishda uning atrof muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim.

Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, ilk o'spirinlarning ko'pchiligini qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, axlokiy tushunchalarni to'g'ri anglaydi. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Abituriyentlik davrida kuzatiladigan har qanday o'zgarishlarni anglab yaqinlari tomonidan uni ko'llab quvvatlashlari uning faol harakatlanishiga turtki bo'ladi. Abituriyentning bu davrdagi psixikasida turli xil to'qnashuvlar kuzatilishi mumkin bu esa o'ziga beriladigan

ishonsizlik holatlari bilan kechadi. Abituriyentlarning test sinovlari oldida ularni qo'llab quvvat va ularning holatlarini tushunish uchun quyidagi tavsiyalarini keltirib o'tamiz.

1. Hayajonning asosiy sababi sinov yoki savollardan bexabarlik va tayyorgarlikning yo'qligidir, - deydi psixologlar. - Uni yengishning esa bir necha qoidalari mavjud. Xususan: Puxta tayyorgarlik - muvaffaqiyat garovi. Shuning uchun qaysi fandan imtihon topshirmoqchi bo'lsangiz, mavzularni yaxshilab o'qing. O'z kuchiga, bilimiga ishonch hayajon va qo'rquvni bartaraf etadi. Atrofdagi gap-so'zlarga umuman ahamiyat bermang.
2. O'ziga ishonch - katta kuch. Bu qobiliyatni mehnatingiz bilan yanada rivojlantirgan bo'lsangiz, bilingki, g'alaba siz tarafd.
3. Sinov oldidan to'yib uxlab oling. Toza havoda sayr qilish ham juda foydali. Bu organizmning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilaydi.
4. Iste'mol qilayotgan mahsulotlaringiz uglevod va oqsillarga boy bo'lishi kerak. Ko'proq tvorog, sabzavotli sho'rva, baliq, tovuq go'shti, tuxum iste'mol qilish foydali. Ular sizga tetiklik va kuch bag'ishlaydi. Bu vaqtda turli donli mahsulotlardan tayyorlangan bo'tqalar ham foydali. Imtihon oldidan shokolad bo'lakchasini iste'mol qilishni unutmang. U antidepressant bo'lib, miyaning faol ishlashida yordam beradi.
5. Atrofdagi yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlash.

References:

1. Умурзакова, Д. А., Толипова, Г. К., & Уразалиева, И. Р. 1Умурзакова Дилором Абдумуминовна/Umurzakova Dilorom–магистр; 2Толипова Гулхаё Комилжон кизи/Tolipova Gulhayo–магистр; 3Уразалиева Ильмира Равкатовна/Urazalieva Imira–ассистент, Школа общественного здравоохранения Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент, Республика Узбекистан. EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY, 109.
2. Dilorom, U., Gulhayo, T., & Ilmira, U. (2017). Ecological and parasitological assessment of drinking water quality of centralized water supply facilities. European research, (1 (24)), 109-110.
3. Zulaiho, D. (2021). The Introduction of a Credit-module System of Education in Uzbekistan Higher Educational Institutions. Бюллетень науки и практики, 7(6), 476-480.
4. Qizi, D. Z. M. M. (2020). Issues on teaching listening to students of non Philological higher educational institutions. Проблемы современной науки и образования, (3 (148)), 72-74.
5. Arzimatova, I., & Shavkatkhon, M. (2022). The Issue of Developing the Ethical and Aesthetic Culture of Management in the Context of Globalization. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 7, 155-159.
6. Якубов, И. Ю. (2023). МОДИФИКАЦИЯ ПОЛИТЕТРАФТОРЭТИЛЕНА СОПОЛИМЕРИЗАЦИЕЙ ТЕТРАФТОРЭТИЛЕНА В ПРИСУТСТВИИ НИЗКОТЕМПЕРАТУРНОГО ИНИЦИАТОРА. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 367-374.
7. Berdimurodova, M. (2021, March). IT'S TIME TO REPLACE THE DAGGER WITH A PEN... In Конференции.
8. Berdimurodova, M. R. (2021). Qatagan (khataki) s and their language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1283-1288.

9. Sultonqulova, F. (2021). METAPHORS OF COLORS IN USMAN AZIM POETRY. Theoretical & Applied Science, (2), 350-353.
10. Sultonqulova, F. (2020). METAPHORICAL IMAGES IN OSMAN AZIM POETRY. Theoretical & Applied Science, (4), 537-539.
11. Саидова, Н. О., & Йигиталиева, М. Ш. (2022). АХБОРОТ-КОММУНИКАТИВ ТАЪЛИМ МУЎИТИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. Miasto Przyszłości, 28, 395-398.
12. Саидова, Н. О. (2022, November). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНинг КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 10, pp. 260-263).
13. Саидова, Н. О. (2022, September). Бўлажак ўқитувчиларнинг компетентлигини шакллантириш муаммолари. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 147-150).
14. Karimova, S. B. (2022). BELIEFS ABOUT TEACHING GRAMMAR. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 123-127.

INNOVATIVE
ACADEMY